Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
FILOLOGIYA

S.IBRAGIMOV LIRIKASIDA JIM-JITLIK MOTIVI

Musa Azatbaevich Jienbaev*
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti
✉ jienbaevmusa1998@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada lirikada jim-jitlik motivi, uning xususiyatlari va qoraqalpoq shoiri S.Ibragimov ijodida qo'llanilishi kabi masalalar o'rganilgan. Shuningdek shoir ijodida jim-jitlik motivining lirik qahramon, g'oya va badiiy obrazni yoritishdagi ahamiyati misollar yordamida yoritib berilgen.

Kalit so'zlar

jim-jitlik motivi, tun, lirik qahramon, badiiy obraz, peyzaj, ong oqimi, monolog.

DOI: 10.5281/zenodo.21743201

KIRISH

Jim-jitlik motivi 1840-yillardagi rus poeziyasida ko'zga tashlana baslaganligi va u dastavval A.Fetning lirikalarida qo'llanilganligi haqida rus adabiyotshunoslari fikrlar bildirishgan. Masalan: "Shoirning «Есть ночи зимной блеск и сила…» (1885) sheri yulduzli tunning jim-jitligi, tabiat go'zalligini ko'rishga, dunyoning kengligini anglashga va atirofdagi hamma narsada ilohiy kuchning qo'li borligini his etishga imkon beradi" [1. B.18]. Bu motiv aniq bir vaqitga bog'liq emas, biroq u lirik qahramonning tungi holatidagi hodisalarni tasvirlaydi. Tungi vaqt bu motivning eng muhim belgisi hisoblanadi.

Túnning ijodkorlikga tasiri, o'ziga xos xususiyatlari haqida adabiyotshunos A.B.Esin rus klassik lirikasi vakillarining ijodini o'rganish mobaynida: "Sutkalik vaqtning tasvirlanishi qadimdan adabiyotda va sanatda mano kasb etgan. Ko'pchilik xalqlarning mifologiyasida tun bu yashirin va aksariyat hollarda yovuz kuchlarning cheksiz hukmronlik qiladigan vaqti. XIX-XX asr adabiyotida sutkalik vaqtning emotsional-psixologik manosini bir personajga yoki lirik qahramonga bog'liq individuallashtirish tendenciyasi bor. Shuning uchun tun qattiq o'ylanish, toqatsizlanish, qayg'uga berilish vaqtiga aylanishi mumkin" [2. B.66] – kabi fikrlarni bildirip o'tadi. Tunning xususiyati eng avvalo tinchlikni, qarong'ulikni taminlash. U har shoirga turlicha tasir qilishi mumkin. Biroq, odatda, tun o'zining xususiyatlari bilan kunning boshqa vaqtlariga taqqoslaganda insonga ko'proq tasir qiladi.

ASOSIY QISM

Hozirgi qoraqalpoq sheriyatining taniqli vakili S.Ibragimov lirikasining har tomonlama mazmuni, poetikasi jihatdan boyib borishiga, shoirning o'zi takidlaganidek, rus adabiyoti va rus tili orqali kirib kelgan adabiyot tasiq qilgani aniq. Ayniqsa, rus lirikasini tubdan o'rganish shoir ijodida yangi dunyoni kashf etdi. Shu sabapli ham uning ijodida yolg'izlik, begonalashuv, jim-jitlik kabi motivlarning ildizini bir tarafdan milliy adabiyotimiz, ikkinchi tarafdan rus adabiyoti va rus adabiyoti orqali G'arb adabiyotining tasiri deb qarash lozim. Shoir ijodidagi jim-jitlik motivi asosan tungi holat, tun obraziga bog'liq qo'llaniladi. Voqealar ham, lirik qahramon ham tun obraziga bog'liq tasvirlanib, muallif psixologiyasi va badiiy fikrlarni tasvirlashga xizmat qiladi. S.Ibragimovning "Tún. Dala. Ot" sheriga diqqat qarataylik:

Bunday túnde juldızlar jerde

álle nárselerge ıntıq boladı –
ózekten suw alıp kiyatırǵan qız
kórinbeydi Mennen ózge kózlerge.
Jel julqıǵan shashlarına kómilip,
adımların sanap basıp kelip qız,
kóyleńkege uzatadı gúzeni –
ol meniń súlderim boladı.
Uzaq suw ishemen tolı gúzeden…
Soń súńgip ketemen órtenip turǵan
jaz túniniń qushaǵına –
bir ózin qaldırıp ol biysharanı [3. B.56].

Sherda yoz oqshomida o'y-hayollarga berilgan lirik qahramonning tun go'zzalligi va ovozidan estetik zavq olayotganini ko'rish mumkin. Bizning ko'z oldimizda qudiqdan suv olib kelayotgan qiz tasvirlanadi va u qo'lidan lirik qahramonga suv beradi. Ammo, bu lirik syujet emas. Sherdagi qiz ham, uning hatti-harakatlari, lirik qahramon va odamlar ham muallifning falsafiy qarashlarining mevasi. Undagi ketma-ketlikdagi harakatlarning hammasi aslida muallifning ong oqimida yuz berayotgan hodisadir, shoirning poetik mahorati natijasida bizga lirik syujetdek ko'rinadi. "Lirika voqelikni tasvirlamaydi, uning uchun voqelik lirik subyekt ruhiy kechinmalarining asosi, ularga turtki beradigan omil sifatidagina ahamiyatlidir. Shu bois lirik asarda voqelik lirik qahramon qalb prizmasi orqali ifodalanadi, yana ham aniqrog'i, lirikada voqelikning kechinmani tasvirlash uchun etarli miqdordagi "parchalari", detallarigina olinadi" [4. B.153]. Yoz mavsumining estetik tasiri, tabiiy tovushlari, jonzotlaarning tungi harakatlari hammasi muallifning ong oqimida kechmoqda. Adabiyotda, ayniqsa, modernizm va uning yo'nalishlari shakllanishi bilan ong oqimi konsepsiyasi ham maydonga keldi. Ong oqimi – (angl. Stream of consciousness) XX asrning dastlabki o'n yilligida inglis tilidagi adabiyotda keng tarqalgan bo'lib, haqiyqatlik va qahramonning ruhiy dunyosini tasvirlashni anglatadi [5. B.773]. Ong oqimi qahramonning yuqorgi ruhiy va emotsional ko'tarinki holatidagi ichki monolog, psixologik komplekslarini tasvirlashga imkon beradi.

S.Ibragimov sherlaridagi jim-jitlik motivi tabiat go'zalliklarini tasvirlashdan boshlanib, lirik qahramonning falsafiy qarashlari bilan teranlashib ketadi. Shoir sherda tabiat bilan ruhiy bog'liqlik o'rnatadi. Lirik qahramonning keshinmalari, o'y-hayollari ichki monolog yordamida tasvirlanishi ham mumkin. Lirikada inson va tabiat o'rtasidagi bog'liqlikning tasvirlashning bu uslubi haqida adabiyotshunos R.S.Georgievna Xlebnikov lirikasini tadqiq etuvchi dissertatsiya ishida: "Velimir Xlebnikov lirikasining xususiyatlarining biri – uning dunyoning barcha hodisalariga oshiqligi, harbir tirik jonning manosiga diqqat qaratishi va odamlar bilan, umumtabiat bilan munosabatda bo'lishga muxtojlikning sherlarida tasvirlanishidir. Bu xususiyatlar lirik qahramonning monologlarining janrlik formalarini belgilab beradi. Ushbu monologlarni ikki guruhga: 1) monologik to'lg'anishlar – lirik qahramonning o'ylari va o'zi haqidagi hikoyasi; 2) monolog-murojatlar" [6. B.12] – deya fikr bildiradi.

Yuqorida takidlangan monologning birinchi turini S.Ibragimovning "Kók duman tarqalar..." deya boshlanadigan sherida ko'rishimiz mumkin:

Kók duman tarqalar
Emeski súwret
gewgimniń shırayın bir-bir asharday.
Dal bedew oynaqshıp ketti selewlep,
Men qaldım, Qos ókpem tars jarılarday.
Tım-tırıs. Jazılıp juwsaydı dala,
tımsa lázzet boyın qaqsatqan qızday,
shapshıp túrgelerdey… tınıs alarda
júzine juwırǵan tolqındı buzbay.
ómirimshe keter usı páryadım:
dúnya – bir yarımdur, men – bir yarımman,

dúnya kózlerime meniń sıymadı,

kókiregim hám tarlıq eteri ayan… [7. B.77].

Sherda lirik qahramonning ichki kechinmalari tasvirlangan bo'lib, falsafiy qarashlari tabiat hodisalari bilan parallel tasvirlanadi. Bunda tabiat hodisalari shoirga ham tasir qilgan, ham uning fikrlarini yetkazishda detal, obraz vazifani bajargan. Jim-jitlik motivida tábiat hodisalari tun bilan birga lirik qahramonning ruhiy kechinmalarin tasvirlaydigan asosiy qurol hisoblanadi. Shoirning hayolida kechayotgan o'ylar, ruhiy dunyosida yuz berayotgan protsess peyzajik harakat yoki jim-jitlik bilan bir vaqtda yuz berayotgandek bayon qilinadi. Lirikadagi bunday uslub haqida adabiy tanqidchi G.Tleuniyazova qoraqalpoq lirikasida kompozitsiyalik izlanishlar haqidagi dissertatsiya ishida: "Lirik asarlarning kompozitsiyasida fikirni ifodalashda asarning mazmuniy qurilishiga singib ketgan peyzajik elementler ham mavjud. Fikirni bunday yetkazib berish shoirning teran izlanishlarining mevasi dep qarash mumkin. Bunda peyzaj metaforik yoki simvolik mano yuklamasini oladi" [8. B.45-47] – deya takidlaydi. S.Ibragimovning yuqoridagi sherida ko'k tuman obrazi juda o'rinli qo'llanilgan. Sherda tabiat tasvirlari ko'k tuman tarqagandan so'ng gina ko'rina boshlaydi. Tuman obrazi, uning oq emas, ko'k tuman bo'lib tasvirlanishi dunyo adabiyotida eng avvalo S.Esenin ijodida lirik qahramonning tuyg'ularini tasvirlashda foydalanilgan edi [9. B.87]. S.Ibragimov sherida esa ko'k tuman – tabiatni yashiruvchi, uni qorong'ulashtiruvchi sifatida tasvirlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda qoraqalpoq shoirlarining jahon adabiyotini o'rganishi

va teran o'zlastirishi natijasida jim-jitlik motivi qoraqalpoq lirikasiga kirib keldi. S.Ibragimovning jim-jitlik motiviga asoslangan sherlari yangi davr dunyosi odamining murakkab tabiati, ichki psixologiyasi va yolg'izligini tasvirlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Лукинова А.Р. Мотивно-тематически аспект эволюции лирики А. А Фета, дисс. кан. фил. наук, автореферат. – Санкт-Петербург, 2014.

2. Есин Б.А. Принципы и приемы. Анализа литературного произведения. Учебное пособие. – Москва: Флинта. Наука.

3. Ибрагимов С. Таңламалы қосықлар. – Нөкис: Билим, 2016.

4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиев М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr. 2013.

5. Литературная энциклопедия терминов и понятий. – Москва: НПК Интелвак, 2001.

6. Георгиевна Р.С. Субъектно-объектное отношение в лирике В. Хлебникова. Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата

филологических наук. – Астрахань, 2002.

7. Ибрагимов С. – Нөкис: Әмиўдәрья, 1980. №10.

8. Тлеуниязова Г. Ҳәзирги қарақалпақ лирикасында композициялық изленислер. – Ташкент: LESSON PRESS. 2022.

9. ЗАБОЗЛАЕВА Т.В. Символика цвета. – СПб: BOREY-PRINT, 1996